

MANZARALAR TASVIRIDA BADIY SO‘ZNING O‘RNI

Muhammadzokirova Mohinur Muhtorjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: mohinurmuhhammadzokirova@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-4741-0361

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18985019>

**Annotatsiya:** mazkur maqolada “Boburnoma” asarida manzara tasvirlarining yaratilishida til omilining o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Zahiriddin Muhammad Boburning manzaralar yaratishda qo‘llagan leksik, sintaktik va uslubiy vositalari atroflicha yoritiladi. Xususan, qisqa va aniq jumlarlar, sodda, ravon bayon usuli, ortiqcha jimjimadorlikdan xoli tasvir tamoyili, realistik va xolis kuzatuvga asoslangan ifoda shakllari manzara tasvirining tabiiyligi va hayotiylikini ta’minlovchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** so‘z, badiiy asar tili, “Boburnoma”, tashbeh, istiora.

**Abstract:** this article scientifically analyzes the specific features of the language factor in the creation of landscape depictions in the work “Baburnama”. The research comprehensively covers the lexical, syntactic, and stylistic means used by Zahiriddin Muhammad Babur in creating landscapes. In particular, short and clear sentences, a simple, fluent method of presentation, the principle of depiction free from excessive embellishment, forms of expression based on realistic and objective observation are shown as the main factors ensuring the naturalness and vitality of the landscape image.

**Keywords:** word, language of a literary work, “Baburnama”, simile, metaphor.

**Аннотация:** в данной статье с научной точки зрения анализируются особенности языкового фактора в создании пейзажных образов в произведении “Бабурнаме”. В исследовании подробно освещаются лексические, синтаксические и стилистические средства, использованные Захириддином Мухаммадом Бабуром при создании пейзажей. В частности, короткие и четкие предложения, простой, плавный метод изложения, принцип изображения, свободный от излишней вычурности, реалистичные и объективные формы выражения, основанные на наблюдении, показаны как основные факторы, обеспечивающие естественность и жизненность изображения пейзажа.

**Ключевые слова:** слово, язык художественного произведения, “Бабурнаме”, аллегория, метафора.

### Kirish

Insonni soya o‘ziga tortar ekan, unda haqiqat yanada yaxshiroq jazb etadi. Har narsaning asli – so‘z... so‘z amal daraxtining mevasidir. Chunki u amaldan tug‘iladi. Ulug‘ Tangri olamni so‘z bilan yaratdi va “bo‘l” deyishi bilan bo‘ldi... So‘z insonning qiymati qadar qadrlidir. (Jaloliddin Rumi)

Badiiy asar maydonga kelishining asosi – so‘zdir. Zero, har qanday adabiy-badiiy asar faqat so‘z vositasidagina vujudga keladi. “Bu abadiy o‘zgaras haqiqatdir”. Ya’ni adabiy-badiiy asar ijodkorning ana shunday sirli hodisadan unumli foydalanishi natijasi o‘laroq yuzaga keladi. Shoir, adibning adabiy-badiiy asar yaratishdagi so‘zdan foydalanishi, badiiy mahorati borasida fikr bildirilganda “badiiy asar tili” iborasi qo‘llaniladi.

Badiiy asar tili muallif tili, personajlar tili, dialog, monolog, arxaik so‘zlar, shevaga, kasb-hunarga oid so‘zlar, jargonlar neologizmlar, antonim, sinonim, omonim, badiiy tasvir vositalari (metafora, istiora, metonimiya, sinekdoxa, allegoriya, jonlantirish, sifatlash, o‘xshatish, mubolag‘a, poetik sintaksis (intonatsiya, parallelizm, anafora, takrorlar, inversiya, antiteza, ritorik munosabat, ritorik so‘roq) kabilardan tarkib topadi. Bu unsurlar badiiy asar tilining jozibali va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi.

Badiiy asar, avvalo, inson qiyofasini gavdalantirishi, uning surati va siyratini aks ettirishi bilan ta’sirchan ekanligi ma’lum. Ijodkor inson obrazini yaratish uchun tilning turli shakl, ko‘rinishlaridan foydalanadi. U shevaga xos so‘zlarni, kasb-korga oid atamalarni, kishi nutqining o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatuvchi iboralarni qo‘llaydi. Biroq har bir ijodkor tilning cheksiz imkoniyatlaridan o‘z qurbi darajasida, iste’dodi, yo‘nalishi ko‘lamida foydalanadi. Hayotda bironing nutqi boshqa bir kishining

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

gapirishidan farqlangani singari, yozuvchi, shoirlarning asarlari tili ham qator o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadi.

Adabiyot nazariyasida realistik proza haqida quyidagicha fikr bildiriladi: “So‘z bilan surat chizish” degan obrazli ibora realistik tasvirda badiiy tilning mavqeini aniq belgilab beradi. Qalamga olingan har bir odamni, har bir ashyoni, har bir joyni ko‘zga yaqqol ko‘rinadigan qilib tasvirlash uchun yozuvchi eng avvalo o‘sha odam, o‘sha ashyo va o‘sha joyni hayolida juda aniq va to‘la-to‘kis gavdalandiradi, keyin ularni qog‘ozga ham tirik va ta’sirli qilib gavdalandirib berish uchun so‘z va iboralar izlaydi”. Asosan, Abdulla Qahhor va Oybek prozasiga taalluqli bo‘lgan ushbu fikr “Boburnoma”dagi realistik tasvirga uncha mos kelmaydi. Boisi, Bobur o‘z asarini oldindan rejalab, voqealarni hayolida juda aniq, to‘la-to‘kis tasavvur qilib yozmagan, “obraz va personajlarni oldindan belgilamagan, hayotning o‘zi unga ularni yetkazgan va fikr bildirishga undagan”.

“Boburnoma” yaratilgan, shuningdek, undan oldingi davrlarda fikrni ifodalashda badiiy tasvir va ifoda vositalaridan keng foydalanish mahorat belgisi hisoblangan. “Boburnoma”da badiiy tasvir va ifoda vositalari keng miqyosda qo‘llanilmagan. Garchi muallif ayrim o‘rinlarda tashbeh, istiora, majoz, tarix aytish, bo‘rttirma hamda lirik chekinish kabilardan foydalangan bo‘lsa-da, asarning umumiy ruhida qisqa va lo‘nda bayon, jimjimadorlikdan tiyilish hamda voqelikni hayotiy tasvirlash ustuvorlik qiladi. Ana shu jihatlari “Boburnoma”ni boshqa adabiy asarlardan yaqqol ajratib turadi. Boburning manzaralar yaratishdagi mahoratini mana shu nuqtai nazardan qisqacha ko‘rib chiqamiz.

“Boburnoma”da manzara tasvirlari muallif kuzatuvchanligi va hayotiy tafakkuriga tayangan holda nihoyatda real va ishonarli tarzda yoritilgan. Ushbu tasvir turi voqea rivoji, tarixiy holat va muallif ruhiy kechinmalari bilan uzviy bog‘liq holda berilib, asarning mazmun va g‘oyasini ochishga xizmat qiladi.

Manzaralar bayonida ortiqcha jimjimadorlikka yo‘l qo‘yilmasligi, so‘zning aniqligi va qisqaligi ustuvor tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, muallif badiiy tasvir va ifoda vositalaridan butunlay voz kechmaydi, ularni o‘rni bilan, me‘yor doirasida qo‘llab, tasvirning ta’sirchanligini kuchaytiradi.

Shu o‘rinda muallifning Sulton Ibrohim bilan bo‘lgan yangi tasviriga e‘tiboringizni qaratsak. Ushbu to‘qnashuv boshlanishi lavhasi quyidagicha tasvirlanadi: “Sulton Ibrohimning qorasi yiroqtinkim, ko‘rindi, hech yerda darang qilmay, tez-o‘q keladur edi. Ilgarak kela bizning qoramizkim, alarg‘a ko‘rindi, bu tartib va yasolnikim, mulohaza qildilar, hasr bo‘lub, turay-turmay, kelay-kelmay degandek qilib, ne tura oldi, ne burung‘idek bedarang kela oldi”.

Muallif ushbu lavhani qisqa va keskin jumlar orqali tasvirlaydi. Dushmanning esankirab, turishini ham kelishini ham bilmay qolgan holatini esa birgina ne (na) inkor qo‘shimchasidan takror foydalanish orqali aniq ochib beradi.

Bobur mirzoning Raana Sanga bilan bo‘lgan yangi tasviri “Boburnoma”ning “Zahiriddin Muhammad Bobur G‘oziy farmoni” qismida Shayx Zayn tilidan keltiriladi: “Chun bu “Fathnoma”din islom cherikining kayfiyati va kuffor haylining kamiyyati, sufuf va yasolning turushlari va ahli islom va ahli kufnrning urushlari mushaxxas va ma‘lum bo‘lur, ul jihattin beziyoda va nuqson o‘shul “Fathnoma”kim, Shayx Zayn insho qilib edi, sabt bo‘ldi”.

Shayx Zayn tomonidan tasvirlangan Raana Sanga bilan bo‘lgan yangi tasvirini ham olib ko‘raylik. Bu misol yuqoridagi fikrimizga yana ham oydinlik kiritadi. Muallif badiiy tasvir va ifoda vositalaridan foydalanib, urushning dahshat va fojeasini obrazli va majoziy tarzda ifodalagan. U jangning boshlanish sahnalaridanoq tashbeh va istioralarni qalashtirib tashlaydi: “Hammalari ajal tunidek xunuk va shum, tundan qora va yulduzlardan ko‘proq edilar. Hammalari xuddi olovdek, lekin tutun kabi kekkayib, ko‘mko‘k osmonga bosh tortgan edilar. Otlig va yayov, xuddi chumolidek ming-minglab o‘ng va so‘ldan keldilar”.

Jangning borishini esa “...shunday zo‘r urush bo‘ldiki, yer yuziga zilzila va osmonga g‘ulg‘ula tushdi.; Gardning ko‘tarilishi kun yuzini oynaning orqa tomoniday benur qilib qo‘ydi.; Shijoatli g‘oziyalar savobni ko‘zda tutib, o‘q ko‘chatini har birlarining ko‘kraklari zaminiga o‘tqazdilar. Buzuq hindlar o‘z hollarini mushkul bilib, “titilgan yungdek” sochilib va “to‘zigan palosdek” nobud bo‘ldilar. Ko‘plari o‘lib, ma‘raka maydonida qoldilar, birmunchalari boshlaridan kechib cho‘llarda sarsonlikka tushdilar va qarq‘a-quzq‘unga yemish bo‘ldilar” kabi tasvirlanadi.

Bobur tomonidan qalamga olingan Ibrohim Sultonga qarshi olib borilgan kurash jarayoni tasviri ko‘p jihatdan Shayx Zayn tasviridan farqlanadi. Fikrimizcha, muallif tarixiy haqiqatga ko‘proq o‘rin berishni ma‘qul ko‘rgan ko‘rinadi: “Farmon bo‘ldikim, to‘lg‘amag‘a tayin bo‘lg‘on kishi o‘ng qo‘ldin, so‘l qo‘ldin evrulub, o‘q qo‘yub, urushqa mashg‘ul bo‘lg‘aylar...; G‘animning o‘ng qo‘li va so‘l qo‘li bori bir yerda yig‘ilib, andoq tiqilish bo‘ldikim, ne ilgari kela oldilar, ne qochg‘ali yo‘l topa oldilar;

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

Oftob bir nayza bo‘yi chiqib edikim, urush angizi bo‘ldi. Kun tushgacha zarb urush edi. Kun tush bo‘la a’do mag‘lub va maqhur va ahibbo mubtahij va masrur bo‘ldilar. Tengri taolo fazl-u karami bila mundoq dushvor ishni bizga oson qildi...” .

Ko‘rib turganimizdek, Bobur jang tasvirini Shayx Zayn kabi badiiy tasvir va ifoda vositalari bilan emas, balki jang olib borilayotgan hududning aniq tasviri, lashkarning joylashuv tartibi, jang uslubi kabilar orqali ifodalagan. Shayx Zaynning yuqoridagi tavsifidan jangning aniq manzarasini tasavvur qilib bo‘lmaydi, ammo “Boburnoma”dagidek hayotiy, aniq tasvir o‘quvchida ko‘proq taassurot qoldiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018. – 304 b.
2. To‘rayeva B. Adabiyot nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020. – 141 b.
3. Adabiyot nazariyasi. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1978. – 278 b.
4. Qudratullayev H. “Boburnoma”ning tarixiy-adabiy va uslubiy tahlili (Navoiy, Bobur, Xondamir va Vosifiy nasrining qiyosiy tahlili asosida). Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 1998. – 355 b.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademiya, 2013. – 408 b.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Ijod press, 2019. -576 b.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. (Tabdil). – T.: O‘qituvchi, 2008. – 288 b.